



UDK: 82.01/09

Dildora M. RAXMONOVA,

PhD, dotsent vazifasini bajaruvchi, Toshkent davlat yuridik universiteti, Toshkent, O'zbekiston

E-mail: dildorarahmonovatsul@gmail.com, ORCID: 0000-0002-2410-6075

O'zbekiston Milliy pedagogika universiteti qoshidagi PKQT va MO tarmoq markazi dotsenti v.b. N.Oymatova taqrizi asosida

FITRAT ADABIY MEROSIDA G'ARB TALQININING TADRIJIY RIVOJLANISHI

Annotatsiya

Mazkur maqolada Abdurauf Fitrat adabiy va publitsistik merosida G'arb talqinining tadrijiy rivojlanishi tadqiq etiladi. «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti», «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari» va «Sharq siyosati» asarlari qiyosiy tahlil asosida o'rganildi. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik hamda badiiy matn tahlili usullaridan foydalanildi, natijalar Y. M. Lotmaning semiosfera nazariyasi va M. M. Baxtinning dialogizm konsepsiyasi asosida izohlandi. Tahlillar Fitrat ijodida G'arb talqini ma'rifiy ideal, ijtimoiy taraqqiyot mezon, tanqidiy baholash obyekti, milliy ozodlik muammolari bilan bog'liq siyosiy hodisa va xalqaro siyosiy tafakkur darajasigacha tadrijiy rivojlanganini ko'rsatdi. Maqolaning ilmiy yangiligi Fitratning turli davrlarda yaratilgan asarlari ilk bor yagona badiiy taraqqiyot jarayoni sifatida qiyosiy tahlil qilinganidir.

Kalit so'zlar: Fitrat, G'arb talqini, jadid adabiyoti, badiiy tafakkur, publitsistika, semiosfera, dialogizm, qiyosiy tahlil, Sharq va G'arb, milliy uyg'onish.

ЭВОЛЮЦИЯ ЗАПАДНОЙ ИНТЕРПРЕТАЦИИ В ЛИТЕРАТУРНОМ НАСЛЕДИИ ФИТРАТА

Аннотация

В статье исследуется поэтапное развитие трактовки Запада в художественном и публицистическом наследии Абдурауфа Фитрата. На основе сравнительного анализа произведений «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti», «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari» и «Sharq siyosati» выявлена эволюция авторского понимания Запада. В исследовании использованы историко-сравнительный, сравнительно-типологический методы и методы анализа художественного текста; полученные результаты интерпретированы с опорой на концепцию семиосферы Ю. М. Лотмана и теорию диалогизма М. М. Бахтина. Установлено, что трактовка Запада в творчестве Фитрата последовательно развивается от просветительского идеала к социальному критерию развития, объекту критического осмысления, политическому фактору национально-освободительной борьбы и категории международной политики. Научная новизна исследования заключается в комплексном рассмотрении этой эволюции как единого художественного процесса.

Ключевые слова: Абдурауф Фитрат, трактовка Запада, джадидская литература, художественное мышление, публицистика, семиосфера, диалогизм, сравнительный анализ, Восток и Запад, национальное возрождение.

THE GRADUAL DEVELOPMENT OF WESTERN INTERPRETATION IN FITRAT'S LITERARY HERITAGE

Annotation

This article examines the gradual development of the interpretation of the West in the literary and journalistic heritage of Abdurauf Fitrat. The study is based on a comparative analysis of Munozara, Hind Sayyohi Bayonoti, Chin Sevish, Hind Ixtilolchilari, and Sharq Siyosati. Historical-comparative, comparative-typological, and literary text analysis methods were employed, while the findings were interpreted through Yuri Lotman's theory of the semiosphere and Mikhail Bakhtin's concept of dialogism. The results demonstrate that Fitrat's interpretation of the West evolved from an educational ideal to a criterion of social development, an object of critical evaluation, a political factor in the struggle for national liberation, and finally a category of international political thought. The novelty of the study lies in interpreting this evolution as a unified artistic and intellectual process for the first time.

Key words: Abdurauf Fitrat, interpretation of the West, Jadid literature, literary thought, journalism, semiosphere, dialogism, comparative analysis, East and West, national awakening.

Kirish. XX asr boshlarida Turkistonda yuz bergan milliy uyg'onish harakati nafaqat ijtimoiy-siyosiy hayot, balki badiiy tafakkur taraqqiyotida ham tub burilish yasadi. Bu jarayonning eng yirik namoyandalardan biri Abdurauf Fitrat bo'lib, uning badiiy va publitsistik merosi Sharq va G'arb munosabatlari, milliy taraqqiyot, ma'rifat, ozodlik hamda zamonaviylik masalalarini yangi estetik qarashlar asosida talqin etishi bilan ajralib turadi. Fitrat uchun G'arb faqat geografik yoki siyosiy makon emas, balki ilm-fan, taraqqiyot, mustamlakachilik va madaniy ta'sir singari murakkab tarixiy hodisalarni o'zida mujassamlashtirgan badiiy obrazdir.

Fitrat ijodini o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlarda uning jadidchilikdagi o'rni, diniy-falsafiy qarashlari, dramaturgiyasi, publitsistikasi, adabiyotshunoslik va

tilshunoslik faoliyati keng yoritilgan. Biroq adibning badiiy va publitsistik merosida G'arb obrazining tadrijiy rivojlanishi, ya'ni bir asardan ikkinchisiga o'tar ekan, muallifning o'zgarib borayotgan dunyoqarashiga hamohang ravishda mazmun va vazifasining yangilanib borishi maxsus tadqiqot obyekti sifatida deyarli ko'rib chiqilmagan. Aksariyat ishlarda G'arb obrazi ayrim asarlar doirasida yoki jadidchilik mafkurasining umumiy tarkibiy qismi sifatida baholanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi Fitratning «Munozara», «Hind sayyohi bayonoti», «Chin sevish», «Hind ixtilolchilari» va «Sharq siyosati» asarlari asosida G'arb obrazining bosqichma-bosqich rivojlanishini aniqlash hamda uning badiiy va g'oyaviy xususiyatlarini qiyosiy tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqotda qiyosiy-tipologik, tarixiy-qiyosiy, konseptual va lingvopoetik tahlil usullaridan foydalanildi. Shuningdek, Y.M.Lotmanning semiosfera nazariyasi hamda M.M.Baxtinning dialogizm konsepsiyasi Fitrat asarlaridagi Sharq va G'arb munosabatlarini talqin etishda metodologik asos sifatida qo'llanildi. Tadqiqot natijasida Fitrat ijodida G'arb obrazi besh bosqichda rivojlanganligi aniqlandi. Dastlab u ma'rifat va taraqqiyot timsoli sifatida namoyon bo'lsa, keyingi asarlarda ijtimoiy taraqqiyot mezonini, tanqidiy modernizatsiya manbai, mustamlakachilikni ifodalovchi siyosiy kuch va nihoyat xalqaro siyosatning murakkab hodisasi sifatida talqin etiladi. Shu jihatdan maqola Fitratning G'arb haqidagi qarashlarini alohida asarlar kesimida emas, balki yaxlit badiiy taraqqiyot jarayoni sifatida yoritishga qaratilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Fitrat ijodi o'zbek va xorijiy adabiyotshunoslikda turli yo'nalishlarda tadqiq etilgan. Dastlabki tadqiqotlar, asosan, adibning jadidchilik harakatidagi o'rni, ma'rifatparvarlik faoliyati hamda milliy uyg'onish mafkurasini yoritishga qaratilgan. Bu yo'nalishda Begali Qosimovning "Maslakdoshlar: Behbudiy, Ajziy, Fitrat" hamda "Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik" monografiyalari Fitratni Turkiston jadidchiligidan yetakchi namoyandalardan biri sifatida baholashi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Keyingi bosqichda fitratshunoslik Fitratning ilmiy va adabiy-estetik merosini chuqurroq o'rganishga yo'naldi. Hamidulla Boltaboyev "Fitrat va jadidchilik", "Fitratning ilmiy merosi" hamda "Fitrat – adabiyotshunos" asarlarida adibning adabiyotshunoslik, estetik tafakkuri va ilmiy qarashlarini tizimli tahlil qiladi. Ilhom G'aniyev "Fitrat va fitratshunoslik" kitobida fitratshunoslikning shakllanish bosqichlarini yoritgan bo'lsa, "Fitrat. E'tiqod. Ijod" asarida uning diniy-falsafiy qarashlari va ijodiy taraqqiyotini tadqiq etadi. Uzoq Jo'raqulov esa Fitratning ilmiy tafakkuri, adabiy-nazariy qarashlari va tadqiqotchilik mahoratini zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan baholaydi.

So'nggi yillarda Fitrat merosining matnshunoslik va manbashunoslik jihatlariga e'tibor kuchaydi. Orzigul Hamroyeva Fitrat majmualarining matnshunosligi va nashr tarixini maxsus tadqiq etib, akademik matn tayyorlashning ilmiy asoslarini yoritdi. Zaynobiddin Abdirashidov esa yangi arxiv hujjatlariga asosida Fitratning Istanbul davri, uning transmilliy intellektual aloqalari hamda jadidchilik mafkurasining shakllanish jarayonini qayta tikladi. Mazkur tadqiqot Fitrat shaxsini musulmon islohotchiligi va xalqaro intellektual aloqalar doirasida talqin qilishi bilan ajralib turadi.

Xorijiy olimlar Fitrat merosini, asosan, Turkiston jadidchiligi va musulmon modernizmi kontekstida o'rgandilar. Eduard Ollvort Fitrat hayoti va ijodini xalqaro ilmiy muomalaga olib kirib, uning asarlari bibliografiyasini tizimlashtirdi. Adib Xolid jadidchilik mafkurasini va musulmon modernizmi doirasida Fitratning g'oyaviy qarashlarini tahlil qildi. Hisao Komatsu, Ingeborg Baldauf hamda Yusuf Avji tadqiqotlarida Fitrat dramaturgiyasi, jadidchilikdagi o'rni va Buxoro islohotchiligi bilan bog'liq qarashlari turli jihatlardan yoritilgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Mazkur tadqiqot tarixiy-qiyosiy, qiyosiy-tipologik hamda badiiy matnni tahlil qilish usullariga tayangan holda amalga oshirildi. Fitratning "Munozara", "Hind sayyohi bayonoti", "Chin sevisi", "Hind ixtilolchilari" va "Sharq siyosati" asarlari o'zaro qiyoslanib, ularda G'arb obrazining mazmuni, vazifasi va badiiy talqinidagi o'zgarishlar izchil kuzatildi. Asarlar yaratilgan tarixiy sharoit hamda Fitrat dunyoqarashidagi tadrjijiy o'zgarishlar tahlilning asosiy mezonini sifatida olindi.

Tahlil jarayonida G'arb obrazi alohida asarlar doirasida emas, balki Fitrat ijodining umumiy rivojlanishi bilan bog'liq

holda o'rganildi. Shu sababli tadqiqotda obrazning badiiy vazifasi, g'oyaviy yuklamasi va tarixiy mazmunidagi o'zgarishlar qiyosiy tahlil asosida aniqlandi.

Olingan natijalarni izohlashda Y.M.Lotmanning semiosfera nazariyasi hamda M.M.Baxtinning dialogizm konsepsiyasi metodologik tayanch sifatida qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. Abdurauf Fitratning 1911-yilda Istanbulda chop etilgan "Hindistonda bir farangi ila buxoroli mudarrisning jadid maktablari xususida qilgan munozarasi" (qisqacha "Munozara") asari [1: 46-98] uning G'arb haqidagi qarashlarining dastlabki badiiy ifodasidir. Asarda G'arb Sharqning tarixiy raqibi emas, balki taraqqiyot mezonini sifatida namoyon bo'ladi. Muallif Buxoro hayotidagi turg'unlikni Farang tajribasi bilan qiyoslash orqali jamiyat taraqqiyotining asosiy omili ilm-fan, zamonaviy ta'lim va erkin fikrlash ekanini asoslaydi. Shu jihatdan "Munozara" jadid adabiyotidagi ma'rifiy bahsning badiiy namunasi sifatida e'tiborga loyiq.

Asarning g'oyaviy markazida Farang va Mudarris qarashlari turadi. Ularning bahsi Sharq va G'arb o'rtasidagi qarama-qarshilikni emas, balki ikki xil tafakkur usulini ifodalaydi. Farang ilm, tajriba va amaliy islohot tarafdori bo'lsa, Mudarris an'anaviy ta'lim va diniy mutaassiblikni himoya qiladi. Fitrat bu bahsda bir tomonning mutlaq ustunligini e'lon qilmaydi; aksincha, jamiyat taraqqiyoti tanqidiy mushohada orqali yuz berishini ko'rsatadi. Shuning uchun G'arb obrazi tayyor andoza emas, balki Sharqni o'zini qayta baholashga undovchi ma'rifiy omil vazifasini bajaradi.

Asarda G'arbnig ustunligi uning milliy yoki diniy mansubligida emas, balki ilmiy tafakkur, zamonaviy maktab, mehnat madaniyati va davlat boshqaruvidagi yutuqlarida ko'rsatiladi [1: 49]. Fitrat G'arbnii ideallashtirishni emas, undan taraqqiyot tajribasini o'rganishni taklif qiladi. Shu sababli "Munozara"dagi G'arb obrazi keyingi asarlardagi murakkab siyosiy mazmundan xoli bo'lib, asosan ma'rifiy vazifani bajaradi.

Bu bosqichda Fitratning qarashlari jadidchilikning dastlabki maqsadlari bilan hamohangdir. G'arb ilm va taraqqiyot manbai sifatida talqin qilinadi, biroq milliy o'zlikni inkor etuvchi hodisa sifatida emas. Keyingi asarlarda aynan shu ma'rifiy talqin yangi tarixiy tajriba ta'sirida kengayib, tanqidiy mazmun bilan boyiydi.

Lotman ta'kidlaganidek, madaniyat tashqi tajribani tayyor holda qabul qilmaydi, balki unga o'z ichki tizimi asosida qayta ma'no beradi [2]. Fitratning "Munozara"dagi G'arb obrazi ham shunday vazifani bajaradi: Farang tajribasi Turkiston voqeligiga ko'chirilmaydi, balki milliy taraqqiyot ehtiyojlari nuqtayi nazaridan qayta talqin qilinadi. Shu bilan birga, Farang va Mudarris o'rtasidagi bahs Baxtin ta'riflagan dialogik qurilishga yaqinlashadi: haqiqat bir ovozda emas, qarama-qarshi dunyoqarashlar muloqoti jarayonida yuzaga keladi [3].

Shunday qilib, "Munozara" Fitrat ijodida G'arb obrazining ma'rifiy bosqichini boshlab beradi. Bu bosqichda G'arb ilm-fan va taraqqiyot timsoli sifatida talqin qilinadi hamda keyingi asarlarda yuz beradigan g'oyaviy rivojlanish uchun asos yaratadi.

"Hind sayyohi bayonoti" [1: 169-180]da bu tasvir sezilarli darajada kengayadi: muallif e'tiborini faqat ta'lim yoki ilm masalasiga emas, balki jamiyat taraqqiyotini ta'minlaydigan omillarga qaratadi. Shu bois G'arb obrazi ma'rifiy ideal doirasidan chiqib, davlat boshqaruvi, qonun ustuvorligi, iqtisodiy tartib, ishlab chiqarish madaniyati va fuqarolik mas'uliyati bilan bog'liq yaxlit ijtimoiy tajriba sifatida namoyon bo'ladi.

Asar sayohat taassurotlari shaklida qurilgan bo'lsa-da, uning asosiy vazifasi voqealarni hikoya qilish emas, balki mavjud jamiyatni qiyosiy baholashdir. Muallif Hindiston va

boshqa mamlakatlar misolida taraqqiyotning asosiy sharti ilmning amaliy hayot bilan uyg'unlashganida ekanini ko'rsatadi. Fitrat nazarida jamiyatning qudrati faqat bilim darajasi bilan emas, balki ushbu bilimning davlat boshqaruvi, iqtisodiyot va kundalik turmushda qanday qo'llanishi bilan belgilanadi. Shu sababli G'arb endi alohida ilmiy yutuqlar majmui emas, balki yaxshi tashkil etilgan ijtimoiy hayot namunasi sifatida tasvirlanadi.

Fitratning diqqat markazida maktab, matbuot, sanoat, transport, mehnat intizomi va qonun ustuvorligi kabi masalalar turadi. Bularning barchasi G'arbnining tashqi belgisi sifatida emas, balki taraqqiyotning ichki omillari sifatida talqin qilinadi. Muallif Sharqning orqada qolishini milliy yoki diniy omillar bilan emas, ilm-fan va ijtimoiy boshqaruvdagi sustkashlik bilan izohlaydi. Shu jihatdan "Hind sayyohi bayonoti" Fitratning modernizatsiya haqidagi qarashlarini ancha chuqurlashtiradi.

Biroq asarda G'arb hali mutlaq ideal darajasida qolmaydi. Fitratning yutuqlarini e'tirof etar ekan, ularni ko'r-ko'rona ko'chirishni emas, milliy ehtiyojlarga mos ravishda o'zlashtirishni taklif qiladi. Demak, muallif uchun taraqqiyot taqlid emas, tanlab o'zlashtirish jarayonidir. Bu jihat Fitratning keyingi asarlarida yanada ravshanlashadigan tanqidiy yondashuvning dastlabki belgilarini ko'rsatadi.

Mazkur xususiyatni Lotmanning semiosfera haqidagi qarashlari bilan izohlash mumkin. Lotman madaniyat tashqi tajribani tayyor holda qabul qilmasligini, uni o'z ichki qonuniyatlarini asosida qayta ma'nolantirishini ta'kidlaydi [2: 268]. "Hind sayyohi bayonoti"da ham G'arb tajribasi nusxa ko'chirish obyekti emas, balki Turkiston taraqqiyoti nuqtayi nazaridan qayta baholanadigan madaniy tajriba sifatida namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, asardagi Sharq va G'arb qiyosi Baxtin ta'riflagan dialogik tamoyil asosida qurilgan: muallif birini mutlaq ustun qo'ymaydi, balki ularning qiyosi orqali yangi xulosa chiqaradi [3].

"Hind sayyohi bayonoti"da G'arb endi faqat ma'rifat timsoli emas, balki jamiyatni tashkil etish, davlatni boshqarish va taraqqiyotni ta'minlash tajribasini mujassamlashtirgan ijtimoiy mezon sifatida talqin qilinadi. Aynan shu qarash keyinchalik "Chin sevish" dramasi [4]da tanqidiy mazmun bilan boyib, G'arbnining ilmiy yutuqlari va mustamlakachilik siyosatini bir-biridan farqlash zaruratiga olib keladi. Avvalgi asarlarda G'arb asosan taraqqiyot va ma'rifat manbai sifatida tasvirlangan bo'lsa, bu dramada u murakkab va ziddiyatli hodisa sifatida talqin qilinadi. Muallif endi ilm-fan va texnika yutuqlarini e'tirof etish bilan birga, mustamlakachilik siyosati va zo'ravonlikni ham keskin tanqid qiladi. Natijada G'arb obrazi ichki qarama-qarshiliklarga ega bo'lgan badiiy obraz darajasiga ko'tariladi.

Asar voqealari Hindiston ozodlik kurashi fonida kechadi. Shu tarixiy vaziyat Fitratga G'arb sivilizatsiyasining ikki qiyofasini bir vaqtning o'zida ko'rsatish imkonini beradi. Bir tomondan, ilm-fan, texnika va zamonaviy tafakkur taraqqiyot omili sifatida qadrlansa, ikkinchi tomondan, ana shu taraqqiyot mustamlakachilik manfaatlariga xizmat qilganda insonparvarlik mohiyatini yo'qotishi ko'rsatiladi [4]. Demak, Fitrat uchun muammo G'arbnining o'zida emas, balki uning qanday maqsad yo'lida qo'llanilishidir.

Drama qahramonlari qarashlarida ham ana shu murakkab munosabat aks etadi. Ular G'arbnini mutlaq inkor etmaydilar, biroq milliy ozodlik va inson qadr-qimmatini poymol qiladigan siyosatini qabul qilmaydilar. Shu tariqa Fitrat ilmiy taraqqiyot bilan siyosiy hukmronlikni bir-biridan ajratadi. Bu esa uning avvalgi asarlaridagi ma'rifiy qarashlaridan sifat jihatdan yangi bosqichga o'tganini ko'rsatadi.

Asarda G'arb obrazi Sharqning oddiy muqobili emas, balki uning ichki imkoniyatlarini anglashga xizmat qiluvchi mezon vazifasini bajaradi. Fitrat Sharqni taraqqiyotdan chetda

qolgan makon sifatida emas, balki o'z tarixiy salohiyatini tiklashga qodir madaniyat sifatida tasvirlaydi. Shuning uchun drama G'arbnini ko'r-ko'rona qabul qilish yoki rad etishga emas, balki uni tanqidiy baholashga da'vat etadi.

Bu o'rinda Lotmanning madaniyatlar o'rtasidagi muloqot haqidagi qarashlari ayniqsa muhimdir. Olimning fikricha, yangi ma'no madaniyatlarning bir-birini takrorlashidan emas, balki o'zaro to'qnashuvi va muloqoti jarayonida yuzaga keladi [2: 257]. "Chin sevish"da ham G'arb va Sharq qarama-qarshiligi yakuniy hukm chiqarish uchun emas, balki yangi tarixiy xulosaga kelish vositasi sifatida xizmat qiladi. Baxtin ta'kidlagan dialogik tamoyil ham aynan shu yerda yaqqol namoyon bo'ladi: drama turli dunyoqarashlarning bahsi orqali o'quvchini mustaqil xulosa chiqarishga undaydi [3: 330, 337].

Endi G'arb faqat taraqqiyot timsoli emas, balki ilm-fan bilan mustamlakachilik, erkinlik bilan zo'ravonlik yonma-yon mavjud bo'lgan murakkab tarixiy hodisa sifatida talqin qilinadi. Aynan shu qarash keyinchalik "Hind ixtilolchilari"da ozodlik g'oyasi bilan yanada chuqurlashadi.

Fitratning "Hind ixtilolchilari" dramasi uning G'arb haqidagi qarashlari rivojining navbatdagi bosqichini ifodalaydi, dramada muallif e'tibori mustamlakachilikning milliy ozodlikka qarshi qaratilgan siyosiy mohiyatiga ko'chadi. Natijada G'arb obrazi ma'rifat va taraqqiyot timsolidan ko'ra ko'proq siyosiy hukmronlik timsoli sifatida namoyon bo'ladi.

Drama Hindiston xalqining ozodlik kurashi asosiga qurilgan bo'lib, unda milliy istiqbol g'oyasi bosh badiiy mezonga aylanadi. Fitrat mustamlakachilikni faqat siyosiy bosim emas, balki xalqning tarixiy xotirasi, milliy g'ururi va ma'naviy mustaqilligiga tahdid sifatida talqin qiladi. Shu bois asarda G'arb obrazi ilm-fan yoki texnika yutuqlari bilan emas, avvalo, mustamlakachilik siyosati orqali baholanadi.

Biroq Fitrat bu yerda ham G'arbnini bir butun hodisa sifatida rad etmaydi. U mustamlakachilik siyosatini G'arb madaniyati yoki ilm-fani bilan aynanlashtirmaydi. Aksincha, muallif siyosiy zo'ravonlikni taraqqiyot g'oyalaridan ajratadi. Shu jihatdan drama avvalgi asarlarda boshlangan tanqidiy qarashni yanada izchil davom ettiradi. Fitrat uchun asosiy mezon millatning erkin yashash huquqi bo'lib qoladi.

Asarda Sharq va G'arb qarama-qarshiligi madaniyatlar to'qnashuvi emas, balki ozodlik va zulm o'rtasidagi kurash sifatida talqin qilinadi. Bu esa Fitratning G'arb haqidagi qarashlari tobora axloqiy va siyosiy mazmun kasb eta boshlaganini ko'rsatadi. Endi taraqqiyotning o'zi emas, uning qanday maqsadga xizmat qilishi muhim mezonga aylanadi. Dramada G'arbnining ilmiy va madaniy yutuqlaridan ko'ra, uning mustamlakachilik siyosati markazga chiqadi. Natijada G'arb obrazi milliy ozodlik va siyosiy mustaqillik mezonini orqali baholanadigan badiiy talqinga aylanadi. Mazkur qarash Fitratning publitsistik merosida, ayniqsa "Sharq siyosati" maqolasida yanada umumlashib, xalqaro siyosat darajasiga ko'tariladi. Unda G'arb haqidagi qarashlarning eng yetuk bosqichini ifodalaydi. Maqolada G'arb obrazi alohida mamlakat yoki madaniyat emas, balki siyosiy manfaatlar asosida harakat qiluvchi tarixiy kuch sifatida namoyon bo'ladi.

Fitrat Sharq mamlakatlarining siyosiy zaiflashuvini faqat tashqi bosim bilan izohlamaydi. U mustamlakachilikning muvaffaqiyatini, avvalo, Sharq jamiyatlaridagi ichki tarqoqlik, ilm-ma'rifatning sustligi, siyosiy birlikning yo'qligi va davlat boshqaruvidagi zaiflik bilan bog'laydi. Demak, muallif uchun G'arbnining ustunligi uning tabiiy afzalligida emas, balki Sharqning tarixiy xatolaridan foydalana olganidadir.

Shu bois "Sharq siyosati"da G'arbgga munosabat keskin tanqidiy tus olsa-da, u mutlaq rad etish darajasiga bormaydi. Fitrat G'arbnining ilmiy va texnik yutuqlarini taraqqiyot omili sifatida e'tirof etishda davom etadi, biroq uning imperialistik

siyosatini insonparvarlik va adolat tamoyillariga zid hodisa sifatida baholaydi. Asarning asosiy g'oyasi G'arbni inkor etish emas, balki Sharqni siyosiy va ma'naviy jihatdan uyg'otish zarurligini asoslashdan iborat.

Olib borilgan qiyosiy tahlil Fitrat ijodida G'arb obrazi o'zgarish badiiy timsol emas, balki adib dunyoqarashi va tarixiy voqelik bilan birga rivojlanib borgan dinamik hodisa ekanini ko'rsatdi. Tadqiqot davomida G'arb obrazining besh bosqichli taraqqiyot yo'li aniqlandi. Fitrat G'arbni hech bir bosqichda mutlaq ideal yoki mutlaq salbiy hodisa sifatida tasvirlamaydi. Uning baholari tarixiy sharoit, siyosiy tajriba va milliy manfaat mezonlariga qarab o'zgarib boradi. Shu sababli Fitratning G'arb haqidagi qarashlarini alohida asarlar kesimida emas, balki ijodiy taraqqiyot jarayoni sifatida o'rganish adib tafakkurining ichki mantiqini to'laroq ochishga imkon beradi.

Xulosa va takliflar. Tadqiqot natijalari Fitrat ijodida G'arb obrazi tarixiy voqelik va adib dunyoqarashidagi o'zgarishlarga mos ravishda izchil rivojlanganini ko'rsatdi. G'arb dastlab ma'rifat va taraqqiyot manbai sifatida talqin

qilinsa, keyinchalik ijtimoiy taraqqiyot mezon, tanqidiy baholash obyekti, milliy ozodlik muammolari bilan bog'liq siyosiy kuch hamda xalqaro munosabatlar tizimining murakkab hodisasi sifatida badiiy talqin qilinadi. Bu hol Fitrat tafakkurining soddadan murakkabga, ma'rifiy qarashlardan siyosiy-falsafiy umumlashmalarga tomon rivojlanganini tasdiqlaydi.

Maqolaning ilmiy yangiligi Fitratning badiiy va publitsistik merosida G'arb obrazining bosqichma-bosqich rivojlanishi ilk bor yaxlit tizim sifatida tadqiq etilganida namoyon bo'ladi. Shuningdek, adibning turli davrlarda yaratilgan asarlarini o'zaro qiyoslash orqali G'arb obrazining mazmuniy o'zgarishlari va ularning tarixiy omillari aniqlandi. Tadqiqot natijalari jadid adabiyotida Sharq va G'arb munosabatlarini o'rganish, Fitrat estetik tafakkurining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash hamda XX asr boshidagi o'zbek adabiy tafakkurini yangi metodologik yondashuvlar asosida talqin etish uchun muhim nazariy asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Фитрат, Абдурауф. Танланган асарлар //Сўз боши ва изоҳлар муаллифи: Ҳ. Болтабоев; Таҳрир хайъати: О. Шарафиддинов ва бошқ.; Масъул муҳаррир: Н. Қаримов/.—Т.: «Маънавият», 2000.
2. Лотман Ю. М. Семиосфера. — СПб.: Искусство—СПБ, 2000.
3. Бахтин М. М. Эстетика словесного творчества. — М.: Искусство, 1979.
4. Фитрат Абдурауф. Танланган асарлар: Ж. III. Драмалар, мақолалар / Таҳрир хайъати: О. Шарафиддинов, Н. Каримов, Д. Алимова ва бошқ.: Изоҳлар муаллифи: Ҳ. Болтабоев; Масъул муҳаррир: Б. Қосимов. — Т.: «Маънавият», 2003.